

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Sh. T.Axmadjonova</b>	Interpretation of the study of speech styles in uzbek linguistics.....	983
<b>Sh. T.Axmadjonova</b>	A study on the characteristics and types of public speaking in english.....	986
<b>Sh. Sh.Dadabayeva</b>	Expression of comparative relation in language.....	990
<b>N.X.Alieva</b>	Evolution of new phraseological units in the era of digitization.....	997
<b>I.M.Jo'rayev</b>	Jadid adabiyotida oila va jamiyat taqdiri masalasi.....	1001
<b>O.Q.Xasanova</b>	Til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rilashda o'yinlardan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1005
<b>И.Ф.Порубай</b>	Рассмотрение языка сферы автоспорта как профессионального языка.....	1010
<b>D. Sh.Rasulova, N.R.Gafurova</b>	Gender study of forms of references in english languages.....	1019
<b>N.R.Gafurova, O'.I.Xomidova</b>	Linguistic and cultural analysis of lexemes expressing tradition in english and uzbek languages.....	1023
<b>I.M.Qo'chqarov</b>	Methods of teaching english.....	1028
<b>N.Z.Axmadjonov</b>	Nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'rashning semiotik xususiyatlari (Elektron xatlar misolida).....	1031
<b>Z.M.Xalilova</b>	Tilshunoslikda "Oila/Family" konseptining o'rganilishi.....	1036
<b>G.R.Tashmatova</b>	Роль интеграции предметного содержания и иностранного языка в формировании иноязычной коммуникативной компетенции студентов высших учебных заведений.....	1040
<b>Sh.A.Nuraliyeva</b>	Navoiyshunoslik taraqqiyotida Oybek ijodining o'rni.....	1044
<b>Z.M.Abdullayev</b>	Antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari (O'zbek va Nemis tillari antroponimlari misolida).....	1047
<b>N.Z.Axmadjonov</b>	Nutq aktlari va ularning klassifikatsiyasi.....	1050
<b>D.X.Madazizova</b>	Badiiy va turistik-reklama diskursida kontaminatsiya imkoniyatlari.....	1055
<b>R.U.Axrorova</b>	«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini.....	1059
<b>R.U.Axrorova, L.B.Ikromova</b>	Adabiy asarlarda maqollarning o'rni.....	1064
<b>A.Mamatova</b>	Nemis tilida frazemalarning turli ma'noda qo'llanilishi.....	1069
<b>A.Mamatova</b>	Nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy tasnifi.....	1074
<b>Sh.O.Abdiloyev</b>	Nemis va tojik tillarida frazeologik birliklarni tasniflash masalasi haqida.....	1078
<b>N.Q.Adamboeva</b>	Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi.....	1083
<b>T.Z.Mingboyeva</b>	The effects of societal expectations on character development in Jack London's novels.....	1087
<b>D.R.Ubaydullayeva, F.S.Abduvaliyeva</b>	Omga oldida nutq qilishdagi qo'rquv sabablari va yechimlari.....	1091
<b>R.A.Ortiqov</b>	Роль и значение компьютерных игр в образовании.....	1095



UO'K: 41+413.13+4

**ANTROPONIMLARNING EGALIK SHAKLLARI BILAN QO'LLANILISHINING  
ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI (O'ZBEK VA NEMIS TILLARI ANTROPONIMLARI  
MISOLIDA)****ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ АНТРОПОНИМОВ С  
ПРИТЯЖАТЕЛЬНЫМИ ФОРМАМИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ И НЕМЕЦКИХ  
АНТРОПОНИМОВ)****ETHNOLINGUISTIC FEATURES OF THE USE OF ANTHROPONYMS WITH  
POSSESSIVE FORMS (USING THE EXAMPLE OF UZBEK AND GERMAN ANTHROPONYMS)****Abdullayev Ziyodbek Mansurovich**

Farg'ona davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

**Annotatsiya**

Maqolada o'zbek tili antroponimlarining egalik kategoriyasi shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari nemis tili antroponimlari bilan qiyosiy aspektda ilmiy tahlilga tortilgan. Egalik shakli ikki qardosh bo'lmagan tillarda turlicha paradigmalarda namoyon bo'ladi. O'zbek tilida egalik ma'nosi egalik olmoshi va egalik qo'shimchalari bilan berilgani holda, nemis tilida faqat egalik olmoshi egalik ma'nosi ifodalashiga xizmat qiladi. Shuningdek, turkiy til hisoblangan o'zbek tilida egalik olmoshi tushirib qoldirilsa ham qo'shimchalar yordamida egalik ma'nosi anglashiladi, lekin bu holat german tillar guruhiga kiruvchi nemis tili uchun xos emas. Egalik shakllari odatda, antroponimlar bilan deyarli qo'llanilmaydi, lekin ular antroponimlar bilan kelsa, o'zbek tilida turli konnotativ ma'nolar ifodalinishi maqolada turli misollar asosida ilmiy tahlil etiladi.

**Аннотация**

В статье анализируются этнолингвистические особенности употребления узбекских антропонимов с формами притяжательной категории в сравнительном аспекте с немецкими антропонимами. Притяжательная форма появляется в разных парадигмах двух неродственных языков. В узбекском языке притяжательные местоимения и притяжательные суффиксы придают притяжательное значение, тогда как в немецком языке для выражения значения притяжательности используется только притяжательное местоимение. Также в узбекском языке, который считается тюркским языком, даже если притяжательное местоимение опущено, притяжательное значение понимается с помощью притяжательного суффикса, но такая ситуация не характерна для немецкого языка, входящего в германскую языковую группу. Притяжательные формы обычно не употребляются с антропонимами, но когда они встречаются с антропонимами, они выражают в узбекском языке разные коннотативные значения.

**Abstract**

The article analyzes the ethnolinguistic features of the use of Uzbek anthroponyms with forms of the possessive category in a comparative aspect with German anthroponyms. The possessive form appears in different paradigms in two unrelated languages. In the Uzbek language, possessive pronouns and possessive suffixes give possessive meaning, while in German only a possessive pronoun is used to express the meaning of possessiveness. Also in the Uzbek language, which is considered a Turkic language, even if the possessive pronoun is omitted, the possessive meaning is understood using a possessive suffix, but this situation is not typical for the German language, which is part of the Germanic language group. Possessive forms are usually not used with anthroponyms, but when they occur with anthroponyms, they express different connotative meanings in the Uzbek language.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, nemis tili, antroponim, egalik shakli, apellyativ**Ключевые слова:** узбекский язык, немецкий язык, антропоним, притяжательная форма, апелляция**Key words:** Uzbek language, German language, anthroponym, possessive form, appellative.**KIRISH**

Egalik, tegishlilik ma'nolarini ifodalash uchun o'zbek tilida egalik qo'shimchalari va egalik ma'nosi kuchaytirilishi uchun esa egalik olmoshlari egalik qo'shimchasi oldidan kelgan so'z oldida kelishi mumkin. Egalik qo'shimchalari egalik ma'nosi bilan birga possessorning qaysi sonda turganini ham ifodalaydi. Shuningdek, egalik qo'shimchasi olgan so'zdan oldin qaratqich kelishidagi so'z tursa, u uqtirish, ta'kidlash kabi alohida semantik ma'no ifodalaydi[4, 206], mas: mening onam, bizning oliygohimiz, sening dadang, uning xatosi kabi.



## ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tilshunoslikda egalik shakllari juda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida ilmiy tahlilga tortilgan (Aikhenvald, Lyons, Geraghty, Shoabdurahmonov v.b.lar). Aynan o'zbek antroponimlarining egalik shakllari bilan qo'llanilishi E.Begmatovning 1965-yil e'lon qilingan dissertatsiya ishida tahlil etilgan. Lekin antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishi qiyosiy aspektida tahlilga tortilmagan. Maqolani tayyorlashda tavsifiy, qiyosiy-tahlil metodlardan foydalandi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mavjud adabiyotlarni tahlil etgan holda nemis tili egalik shakllari apellyativlar bilan kelishi quyidagi jadvalda ko'rsatildi:

	Egalik olmoshi	Egalik qo'shimchasi	Unli bilan tugagan apellyativ	Undosh bilan tugagan apellyativ
Birlik				
I.	Mening 'Mein(e)'	-(i)m	Mening ona-m 'meine Mutter'	Mening uy-im 'mein Haus'
II.	Sening 'Dein(e)'	-(i)ng	Sening ona-ng 'deine Mutter'	Sening uy-ing 'dein Haus'
III.	Uning 'sein/ihr(e)'	-si/-i	Uning ona-si 'seine/ihre Mutter'	Uning uy-i 'sein/ihr Haus'
Ko'plik				
I.	Bizning 'unser(e)'	-(i)miz	Bizning ona-miz 'unsere Mutter'	Bizning uy-imiz 'unser Haus'
II.	sizlarning 'euer(e)'	-(i)ngiz/inglar	Sizlarning ona-ngiz 'eure Mutter'	Sizlarning uy-ingiz 'euer Haus'
III.	Ularning 'ihr(e)'	-si/-i	Ularning ona-si 'ihre Mutter'	Ularning uy-i 'ihr Haus'
Hu m. sh.	Sizning 'Ihr'	-(i)ngiz	Sizning ona-ngiz 'Ihre Mutter'	Sizning uy-ingiz 'Ihr Haus'

Jadval 1: O'zbek tili turdosh otlarda egalik shakllari va ularning nemis tilida ifodalanishi

Jadvalda ko'ringanidek, o'zbek tilida egalik shakllari egalik olmoshlari va qo'shimchalari yordamida ifodalanadi. Nemis tilida esa egalik shakli egalik olmoshlari vositasida namoyon bo'ladi. O'zbek tili egalik olmoshlari tushib qolishi va usiz ham egalik qo'shimchalarining o'zi egalik ma'nosini ifodalay olishi mumkin. Nemis tilida egalik qo'shimchalari mavjud emas va shu sababli egalik olmoshi tushib qolishi kuzatilmaydi.

	So'zlovchi (1.shaxs)	Adressat (2.shaxs)	Boshqa shaxs (3.shaxs)			
			Distansiya saqlash shakli	Mujs. rod	Sred. rod	Jensk. rod
<b>Birlik</b>	<i>mein</i>	<i>dein</i>	<i>Ihr</i>	<i>sein</i>		<i>ihr</i>
<b>Ko'plik</b>	<i>unser</i>	<i>euer</i>		<i>ihr</i>		

Jadval 2: Nemis tilida egalik shakli paradigmasi

Atoqli otlar, xususan, antroponimlar egalik shakllarda turdosh otlar kabi qo'llaniladi.

	Egalik q.chasi	Birlik	
		undosh	Unli
I.	-m/-im	mening Botir-im 'mein Botir'	mening Lola-m 'meine Lola'
II.	-ng/ -ing	sening Botir -ing 'dein Botir'	sening Lola-ng 'deine Lola'

## TILSHUNOSLIK

III.	-si/-i	uning Botir -i 'sein/ihr Botir'	uning Lola-si 'seine/ihre Lola'
<b>Ko'plik</b>			
I.	-miz/-imiz	bizning Botir-imiz 'unser Botir'	bizning Lola-miz 'unsere Lola'
II.	-ngiz/-ingiz	sizlarning Botir-ingiz 'euer Botir'	sizlarning Lola-ngiz 'eure Lola'
III.	-si/-i	ularning Botir -i 'euer Botir'	ularning Lola-si 'ihre Lola'
Hurm. sh.	-ngiz/-ingiz	sizning Botir -ingiz 'Ihr Botir'	sizning Lola-ngiz 'Ihre Lola'

**Jadval 3: O'zbek tili antroponimlarining egalik shakllari va ularning nemis tilida berilishi**

Agar qaratqich kelishigidagi so'z shaxs nomlari oldida kelsa, u egalik qo'shimchasisiz turishi mumkin.

*Mohirabonudan ikki o'g'il va ikki qiz dunyoga kelib, [...] to'rtinchisi bizning Zaynab edi. (Abdulla Qodiriy)*

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli risolada ham aynan yuqorida keltirilgan fikrga o'xshash fikr keltirilib, egalik ma'nosi ba'zan egalik qo'shimchasisiz sintaktik usulda ifodalanishi va bu odatda, birinchi shaxs ko'plik shaklida uchrashi ta'kidlanadi: *Bizning Hakima olov. (Oybek)*[4, 207].

A.Shomaqsudov v.b.lar tomonidan tayyorlangan "O'zbek tili stilistikasi" nomli qo'llanmada o'zbek tilida egalik shakli boshqa tillarga qaraganda ancha ixcham shaklda ifodalanishini takidlangani holda, egalik olmoshi tushib qolganda ham egalik ma'nosi ifodalanishiga ishora qilinadi. Mualliflar dunyoning boshqa tillari, xususan, nemis tilida egalik qo'shimchasi mavjud emasligi va egalik olmoshi tushirib qoldirilsa egalik ma'nosi ifodalab bo'lmasligini qayd etganlar[5, 95].

O'zbek tilida antroponimlar odatda egalik shakllari bilan qo'llanilmaydi. Agar antroponimlar egalik ifodalovchi shakllar bilan qo'llanilsa, turli konnotativ ma'nolar ifodalanishi mumkin.

(a) **"Mening Hurshidam!** butun dunyoni yoritib, charag'on qilib turgan **Hurshidam!"**, deb erkaladi. (Qahhor Solih)

(b) **Bizning Zaynab** ikkita chet tilida bemalol so'zlasha oladi.

(c) **Ulami iflos Mumtozingiz** changalidan qutqazmoqchiman. (Qahhor Solih)

Yuqoridagi (a) gapimizda egalik shakllari bilan kelgan ism orqali mazkur ism egasini yaqin olish, erkalash, (b) misolimizda faxrlanish ifodalangan bo'lsa, antroponim egalik qo'shimchasini olib kelgan (c) gapimizda ta'na qilish, norizolik va ism egasidan masofa/distansiya saqlash ma'nolari anglashiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot maqsadi bevosita antroponimlar apellyativlardan lingvistik jihatdan qanday farqli va o'xshash jihatlarga ega degan savoldan kelib chiqqanligi uchun, tabiiy savol tug'iladi, o'zbek tilida atoqli ot, aynan antroponimlar egalik shakllari bilan kelganda turdosh otlardan farqli jihatlari namoyon bo'ladimi? Yuqorida keltirilgan misol va ular tahlili asosida mazkur qo'yilgan savolga yo'q deb javob berish mumkin. O'zbek tili antroponimlari egalik shakllari bilan turdosh otlar kabi qo'llaniladi va o'xshash lingvistik xususiyatlarni namoyon qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev, Ziyodbek. Usbekische Personennamen-Etymologie, Grammatik, Pragmatik. Diss. 2021.
2. Ziyodbek, Abdullaev. "Personennamen Im Deutschen Und Usbekischen: Eine Kontrastive Untersuchung." *Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий методик электрон журнал* 1, [https://journal.fdu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Jurnal\\_2017-1Ziyodbek-Abdullaev.pdf](https://journal.fdu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Jurnal_2017-1Ziyodbek-Abdullaev.pdf) (2017).
3. Қодирий, Абдулла. Ўткан кунлар; Меҳробдан чаён. Рўмонлар. — Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994 —656.
4. Солих Қаххор Дайди қизнинг дафтари. - Шарқ, 2001.
5. Ҳозирги ўзбек адабий тили, Фан нашриёти – Тошқент, 1966. Б.206.
6. Шомақсудов А. в.б.лар Ўзбек тили стилистикаси ўқитувчи, –Тошқент, 1983. Б. 95.